

MP

2022/2023-o'quv yili uchun kollej va texnikum-  
larga 139 638 ta qabul kvotasi tasdiqlandi.

Shundan:

149 ta kollej uchun  
59 ming 460 ta

194 ta texnikum uchun  
80 ming 178 ta

# YOSHLAR OVOZI

## BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 55 (16508)  
2022-yil, 13-avgust  
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Yurt iftixorlari  
3-bet

Ular bunga  
munosib!

Mahallada yoshlar yetakchisi  
4-bet

El koriga kamarbasta  
yetakchi

Minbar  
7-bet

Muallimning  
chaqirig'i



## ARAVAKASHLIKDAN “KELAJAK BUNYODKORI” GACHA

26 yoshli Umidjon Ortiqov axborot texnologiyalari yo'nalishida tadbirkorlik bilan shug'ullanadi.  
U eshitishi va gapirishida nuqsoni bor yoshlarga IT o'rgatishga ixtisoslashtirilgan  
“Kalibri education” o'quv markazi asoschisi.

batafsil  
5-betda

# AYOLLAR – JAMIYAT KO'ZGUSI

DAVLAT TASHKILOTLARIDA FAOLIYAT OLIB BORAYOTGAN  
YOSH XOTIN-QIZLAR ISHTIROKIDA O'QUV-SEMINAR BO'LIB O'TMOQDA

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, davlat boshqaruvi-dagi ishtirokini kengaytirish, ular uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash borasidagi ishlar izchillik bilan olib borilmoqda. Bugungi kunda boshqaruv lavozimlarida ayollarning ulushi 33 foizga yetgan. Oxirgi saylovlarda respublikamizda birinchi marta Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar orasida ayollar ulushi 32 foiz, Senat hamda mahalliy kengashlarda qariyb 25 foizni tashkil etdi.




**S**o'nggi yillarda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqmoqda. Bu illatlarni yo'qotish uchun huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi, Senatda Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi tuzildi. Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida "Ayollar daftari" hamda "Yoshlar daftari" tizimlari yo'lga qo'yildi.

Shu yil 8-avgust kuni O'zbekiston Prezidenti "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Qonunga muvofiq Yoshlar ishlari agentligi 12-13-avgust kunlari Yoshlar ijod saroyida vazirlik va davlat tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan yosh xotin-qizlarning malakasini oshirishga bag'ishlangan o'quv-seminar o'tkazmoqda.

Seminarda jamiyatda o'z mavqeyi va darajasiga ega bo'lgan, oila hamda ish faoliyatini hamohang olib borayotgan rahbar ayollar bilan muloqot o'tkazildi. Xususan, Yoshlar ishlari agentligi direktorining o'rinbosari Dilnoza Kattaxanova, O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi raisi o'rinbosari Nodira Egamberdiyeva, Milliy tiklanish demokratik partiyasi raisining birinchi o'rinbosari Feruza Muhammadjonova, Toshkent shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Durdona Rahimova ishtirok etib, ham davlatning, ham oilaning ishonchini qanday oqlab kelayotgani, o'z ish tajribalari haqida so'zlab berdi.

## Feruza MUHAMMADJONOVA, Milliy tiklanish demokratik partiyasi raisining birinchi o'rinbosari:

– O'zbekistonda qizlar ovozigina alohida e'tibor qaratiyapti. Rahbarlik juda og'ir ish. Biroq sizni qo'llab-quvvatlashga munosib yelka topsangiz, bu baxtingiz. Chunki bizni biz qilib turgan ular. Shoira Farida Afro'zning bir gapi bor: "Ayol uchta narsasiz yashay olmaydi – mehr, farzand va ko'zgu". Men ilk faoliyatimni O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida boshlaganman. Ham davlatning bir bo'g'ini bo'lish, ham oilani eplash uchun ayol kishiga yaxshi suyanch kerak. Meni doim qo'llab-quvvatlaydigan inson qaynonam va turmush o'rtog'im. Ilohim, har bir qizga shunacha oila uchrasin.



O'quv-seminarda Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev so'zga chiqib, davlat xizmatida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning mas'uliyati va yutuqlari xususida to'xtaldi.

Shuningdek, o'quv-seminar doirasida "Ilm-fanda yosh xotin-qizlarning o'rnini. Yangi tendensiyalar va istiqbol" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman ham bo'lib o'tdi. "Rahbar ayollar bilan uchrashuv", "Ayollarning teng huquqliligi va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi roli", "Moliyaviy savodxonlikning ayollar ha-

66

MAMLAKATIMIZ AHOLISINING 49 FOIZINI AYOLLAR, ULARNING QARIYB 64 FOIZINI ESA 30 YOSHGACHA BO'LGAN XOTIN-QIZLAR TASHKIL ETISHINI INOBATGA OLSAK, YOSHLAR ORASIDA GENDER TENGLIGINI TA'MINLASH BUGUNGI KUNNING DOLZARB MASALASIDIR.

## Durdona RAHIMOVA, Toshkent shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha hokim o'rinbosari:

– Men 4 yil davomida o'qishga kirolmay, 5-yili grant asosida kirganman. Ik faoliyatimni o'qituvchilikdan boshladim. Keyin taqdir taqozosi bilan yoshlar tashkilotida ishladim. 30 yoshimda menga katta mas'uliyat va ishonch bilan hokimiyat tizimida ishlash baxti ishonib topshirildi. Rahbar ayol kim? Erta tongdan turmush o'rtog'ini ishgah, farzandlarini bog'chaga, maktabga kuzatib, uy ishlarini bajarib, yana yelkasiga katta mas'uliyatni orqalab davlat xizmatiga yuguradigan, uni ishonchli bajarishga va yana kech tushganda uyiga shoshib qaytadigan, oilasi oldida o'zini aybdor his qiladigan, bir jonini mingga bo'lib yashaydigan ayollar. Buning uchun har bir ayolga katta matonat va iroda kerak bo'ladi. Payti keladi, yaqinlaringizning quvonchli kunida yonida bo'lmaysiz, farzandingiz isitma qilsa, borolmaysiz. Lekin shu kunda sizni qo'llab-quvvatlaydigan, to'g'ri tushunadigan turmush o'rtog'ingiz, yaqinlaringiz bo'lishi lozim. Chunki oilaviy xotirjamlik bo'lmasa, ayol kishi natijaga erisha olmaydi.



yotidagi o'rnini", "Davlat xizmatida gender tenglikni ta'minlash", "Media savodxonlik va shaxsiy brendni rivojlantirish", "Notiqlik san'ati nima va uni qanday qo'llash mumkin?" kabi mavzularda qizqarli trening va mahorat darslari tashkil etildi. Davlat tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarning o'zaro bilim, ko'nikma, malaka hamda tajriba almashishi uchun imkoniyat yaratildi.

Dilnoza ABDUHAMIDOVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri



HINDISTONNING CHENNAI SHAHRI MEZBONLIK QILGAN 44-JAHON SHAXMAT OLIMPIADASI G'OLIBI BO'LGAN O'ZBEKISTON TERMA JAMOASI ISLOM KARIMOV NOMIDAGI XALQARO AEROPORTDA TANTANALI KUTIB OLINDI.

### HAYAJON

Yarim tun. Aeroport oldi odamlar bilan gavjum. Sportchilarning ota-onasi, yaqinlari, mas'ul mutasaddilar, sport xlosmandlari jam bo'lgan. OAV vakillari, bloggerlar hozir turibdi.

Dunyo shaxmat tojdorlari milliy kuy hamda davlat madhiyasi sadolari ostida kutib olindi. Marosimda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov, Prezident maslahatchisi Abdujabbor Abdvohidov, Toshkent shahar hokimi Jahongir Ortiqxo'jayev va boshqalar ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shaxmatchilarimizga yo'llagan tabrigi Bosh vazir tomonidan o'qib eshittirildi. So'ngra ularga "Chevrolet Equinox" avtomobili kaliti, 600 million so'mlik pul sertifikati va "O'zbekiston iftixori" mukofoti topshirildi.

### MAHORAT

Jahon shaxmat qirollarini "tiz cho'ktirish" oson kechmadi. Har bir bahs keskin kurashlar, uzoq davom etgan "aql yangi"dan iborat bo'ldi. Ba'zi payt vaqt, boshqa payt chuqur tafakkur o'z kuchini ko'rsatdi. Bizning qahramon yigitlar zarari uchun ishlagan onlarga ham guvoh bo'ldik. Har qanday holatda ham shaxmatchilarimiz so'nggi soniyalarga qadar g'alaba uchun kurashdi. Iroda, aql va tezkorlik uyg'unlashgan o'yinlarda bugungi chempionlar o'z so'zini ayta oldi.

### KO'Z YOSHLAR

Jigarbandining g'alabasini, yutug'ini ko'rishdan ortiq baxt yo'q ota-ona uchun. Qahramonlari-mizning ota-onasi ham o'z quvonchlarini berkitmadi, ko'z yoshlarini to'xtata olmadik...

Bugun ularga bu juda yarashdi. Hatto hamma ich-ichidan ularning o'rnida bo'lishni orzu qildi.

### XURSANDCHILIK

O'zbek nomini dunyoga tarannum etib, muzaffar qaytib kelgan yoshlarning ko'zlari yonib turibdi. Bu chempionlar o'zlarini nazorat qila olgan. "Yulduzlik kasali"ga chalinmagan, g'alabadan sarmast bo'lmagan. Ko'zidan olov chaqnaib turgan yoshlar bugun shaxmat olamining haqiqiy sherlariga aylandi. Juda ko'p taniqli grossmeysterlarni joyiga "o'tqizib qo'ya oldi". Bugun hammaning nazariga tushdi. Endi dunyo nigohi, shubhasiz, O'zbekistonga qaratiladi.



**Jahongir VOHIDOV,**  
O'zbekiston terma jamoasi a'zosi:

—Biz uddaladik, bergan so'zimizdan chiqdik. Bunday natija ortida, albatta, birlamlik, jamoaviy hamjihatligimiz turibdi. Barcha kuzatuvchilar ham bizning ahilligimizni e'tirof etdi. Biz bu o'yinda ortimizda butun o'zbek xalqi turganini, qo'llab-quvvatlayotganini his qildik. O'yin boshidagi 14-o'rindan to g'alabagacha bo'lgan mashaqqatli yo'lni bosib o'tishimizda hammaning hissi bor. Buning uchun barchaga va, albatta, Prezidentimizga shaxmatga berayotgan e'tibori uchun jamoamiz nomidan minnatdorchiilik bildiraman.

### KELAJAK

2026-yil 46-Jahon shaxmat olimpiadasi yurtimizda bo'lib o'tadi. Bizning chempionlar uchun bu katta mas'uliyat yuklaydi. Prezidentimiz o'z nutqida aytib o'tganidek, bizning yurtimizga kelayotganlar chempionlar yurtiga ketyapmiz, degan hadikda bo'ladi. 4 yildan keyin ham O'zbekiston terma jamoasi yetakchilikda davom etadi.

### QIZLAR JAMOASI

Yosh bo'lishiga qaramay katta natijalar ko'rsata olgan qizlarimizga ham hurmat va e'tibor yigitlardan kam bo'lmadi. Terma jamoamiz sharafini himoya qilgan 5 nafar qizimiz ham o'z so'zlarini ayta oldi. Biroz omadsizlik va tajribasizlik sabab chempionlikka ega chiqa olmasada, ular ham e'tiborda: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan, "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandi.



**Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,**  
"Yoshlar ovozi" muxbiri

# EL KORIGA KAMARBASTA YETAKCHI

Iqbol PARDAYEVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Mahalladagi yoshlar yetakchisining sa'y-harakatlari sabab bu-gun Ravshanoy Husanboyeva 15 yillik azobli og'riq va zulmatdan xalos bo'ldi. Gap shundaki, Ravshanoyning ko'zi qattiq jismandan shikastlanishi oqibatida ko'rish qobiliyati yo'qolgan va shundan buyon ikki ko'zi va boshi tinimsiz og'rir edi.

Ravshanoy  
HUSANBOYEVA,  
O'zbekiston tumanidagi  
"Oqmasjid" mahallasi fuqarosi:



– O'sha baxtsiz hodisa ro'y berganda 3 yoshda bo'lganman. Shundan buyon doimiy og'riqda yurdim. Ko'zi ojizlar maktabida ta'lim oldim. Lekin og'riqlar zo'rligidan yaxshi o'qiy olmadim. Shu azoblar sabab birorta do'st ham orttirmadim. Onam doim men bilan birga maktabga borib, birga kelardi. Ko'p shifokorlarga ko'rsatishdi. Biroq operatsiya uchun mablag'imiz bo'lmadi. Mahallamizga yoshlar yetakchisi etib tayinlangan Kamoliddin aka

meni Yoshlar ishlari agentligi hisobidan davolatish chorasi borligini aytib, poytaxtga shifokor ko'rigiga olib bordi. Operatsiyadan so'ng og'riqdan xalos bo'ldim, ko'zlarim yorug' olamni ko'ra boshladi. Buning uchun, avvalo, bizga yo'l-yo'riq ko'rsatgan mahallamiz yoshlari yetakchisi Kamoliddin Qoraboshev va Yoshlar ishlari agentligiga o'zimning va ota-onamning rahmatini yetkazmoqchiman. Ulardan minnatdormiz.



Kamoliddin QORABOSHEV,  
O'zbekiston tumanidagi "Oqmasjid" mahallasi yoshlar yetakchisi:

– Bu mahallaga 10 kilometr masofadan kelib ishlayman. Lavozimga tayinlanib, ishga kirishganimda Ravshanoy bilan tanishib, uning muammosini o'rgandim. Bizga berilgan imtiyozlarni ko'rib chiqib, bu qizga yordam bera olishimdan juda xursand bo'ldim. Uni "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olib, 5 million 600 ming so'm mablag' oldik. Qolgan xarajatlarni o'zim va mahalladagi saxovatpesha kishilardan jamg'arib, poytaxt tomon yo'l oldik. Shifokorlar shikastlangan ko'z o'rniga sun'iy gavhar qo'ydi va ikkala ko'zni ham davoladi. Hozir Ravshanoy hamma azoblardan qutilib, ko'rish qobiliyati to'liq tiklandi.

Xatlov paytida ko'chma kutubxona ham tashkil qildim. O'z hisobimdan 500 ta eng sara kitoblarni xarid qilib, ularni bo'sh vaqti ko'p bo'lgan yoshlarga tarqatib chiqdim. Kitoblarni o'qib bo'lgandan keyin boshqasi bilan almashtirdik. Shu tariqa yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qildim. Hozir kitob o'qish istagida yangi kitoblarni so'rab kelayotgan yoshlar ko'paydi. Hattoki ke-linlar ham bo'sh vaqtda serial ko'rishdan ko'ra kitob o'qishni afzal ko'rishmoqda. Yoshlarimiz kitob o'qishga qiziqishining yana bir sababi mahallamiz ahli o'rtasida "Yosh kitobxon" tanlovida g'olib bo'lib "Spark" mingan yosh bor.

Mahallamizda ko'pchilik yoshlar oliy ta'limda o'qishni davom ettirish istagida. Buning uchun qo'shimcha dars ham olmoqda. Ammo qo'shimcha dars uchun hammada ham imkon topilmaydi. Ana shunday oilalarda istiqomat qilayotgan, o'qishga ishtiyoqi baland yoshlarni tanlab olib, homiylik asosida ularning qo'shimcha darslarga borishini ta'minladim. Yaqinda imtihonlar o'tib, o'yilagan rejam natija bersa, keyingi yilga 10 nafar yoshning shu tariqa o'qishga tayyorlanishiga yordam bermoqchiman.

Mutaxassisligi bo'yicha jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lgan Kamoliddin mahallada yoshlarning sportga qiziqishiga ham alohida ahamiyat qaratib keladi. Shu paytgacha mahalla yoshlari o'rtasida bir nechta futbol jamoalari tashkil etilib, ular o'rtasida doimiy tarzda futbol musobaqalari tashkillashtirilib kelinmoqda. Qolaversa, mahalla yoshlari "Besh tashabbus olimpiadasi"da faol qatnashib, respublika bosqichida 3 o'ringa loyiq topildi.

– "Besh tashabbus olimpiadasi"ning birinchi turi biz uchun katta dars bo'ldi, – deydi Kamoliddin Qoraboshev. – Hozir sportga qiziquvchi yoshlar bilan olimpiadaning ikkinchi turiga qizg'in tayyorgarlik ko'moqdamiz. Niyatimiz har bir sport turidan yaxshi natijalarni qo'lga kiritish. Buning uchun tajribali murabbiylarni jalb qildik.

Biz mahalladagi yoshlar yetakchilarining faoliyatini yoritarkanamiz, ba'zan ular bilan uyali aloqa vositasi orqali bog'lanamiz. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lumot almashamiz. Bu gal yetakchi bilan bog'lanishimiz ancha qiyin bo'ldi. Sababi mahalla viloyatning chekka hududida joylashgani bois internet sifati juda past ekan. Bu muammo juda ko'p sohalarida pand berayotganini ta'kidlagan yoshlar yetakchisi: "Hududda internet sifati yaxshi bo'lganida juda ko'p muammolarimiz hal bo'lar edi", – deydi. Albatta, bugun juda ko'p sohalar ijtimoiy tarmoqlar orqali rivojlanayotganini hisobga olib, biz ham mahallada internetning tezkor va sifatli ishlashi ta'minlab berilishi tarafdorimiz.



## 2-MAVSUM BITIRUVCHILARI TAQDIRLANDI



Samarqand volontyorlar maktabining 2-mavsum bitiruvchilarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Unda mavsumni muvaffaqiyatli bitirgan 32 nafar volontyor sertifikat bilan taqdirlandi.

Endi ular o'z qiziqishlari bo'yicha erkin volontyorlik harakatini olib boradi. Tadbirda qatnashgan Yoshlar ishlari agentligining Samarqand viloyati boshqarmasi boshlig'i Husan To'xtayev hamda Yoshlar ishlari agentligi mutaxassisi Elyor Norpo'latov volontyorlarning keyingi faoliyatiga omad tiladi.

Charos SAIDOVA,

Yoshlar ishlari agentligining Samarqand viloyati boshqarmasi axborot va media xizmati bo'yicha mutaxassisi

# ARAVAKASHLIKDAN “KELAJAK BUNYODKORI”GACHA

**Baxt sizning qanday uy-joyda yashashingiz, mashinangiz bilan belgilanmaydi, aksincha, qalbingizga quvonch keltiradigan sohada faoliyat yuritishingiz baxtdir.**

**B**ugun shunday tafakkur bilan o'z tengdoshlaridan bir qadam oldinda bo'rayotgan 26 yoshli qahromonimiz Umidjon Ortiqov axborot texnologiyalari yo'nalishida tadbirkorlik bilan shug'ullanadi. U eshitishi va gapirishida nuqsoni bor yoshlarga IT o'rgatishga ixtisoslashgan "Kalibri education" o'quv markazi rahbari. "Kelajak bunyodkori" medali sohibi.

– IT bu – kelajakka qo'yilgan poydevor. Shu bois men ham axborot texnologiyalari sohasini mukammal egallashga harakat qilдим, dasturlash tilini o'rganishga kirishdim, – deydi Umidjon Ortiqov. – Biroq noutbukim bo'lmagani sabab barcha kodlarni daftaringa yozib o'rganishga harakat qilardim. Lekin kompyuter bo'lmagandan keyin buning natijasini ham ko'rmaysiz. Tez orada onam va ukam pul jamg'arib, menga kompyuter sovg'a qilishdi. Bu men uchun juda katta imkoniyat, parvoz qilishimga qanot bo'ldi. Kelajagimni IT sohasi bilan bog'lash uchun dastlab Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti akademik litseyida informatika o'qituvchisi bo'lib ishladim. Darsdan tashqari IT sohasini davom ettirib, buyurtmalar olib, tadbirkorlar bilan hamkorlikda ishladim. Tez fursatlarda fleranserlik yo'nalishida ham o'zimni sinay boshladim. Bepul to'garaklar ochib, yoshlarni jalb etdim. Talablar ortgach, repetitorlikni yo'lga qo'ydim. Web-sayt, dizayn sohalarida tajriba orttirdim. Keyinchalik jamoa yig'ib, tengdoshlarim bilan yangi g'oyalarni ustida ishlay boshladim.

Umidjon 2021-yili davlatimiz rahbarining Yunusobod tumaniga tashrifida eshitish va gapirishida nuqsoni bo'lgan yoshlarga grafik

dizaynerlikni o'rgatish loyihasini taqdim etgan. Prezidentimiz bu loyihani iliq qarshi olgach, Umidjon yangi marralar sari dadil qadam tashladi. Natijada Yoshlar ishlari agentligi Yunusobod tuman bo'limi ko'magida IT kompaniyasi va eshitishi hamda gapirishida nuqsoni bor, shuningdek, boshqa yoshlarga ITni o'rgatishga ixtisoslashgan "Kalibri education" o'quv markazini yo'lga qo'ydi.

– Imkoniyati cheklangan yoshlardan biz pul olmaymiz. Chunki o'zim ham otasiz katta bo'lganim sabab ustozim bepul darslar o'tgan, endi men ham yaxshiliklar, ezguliklar ulashib, ustozlarimning fidoyiligini oqlashim darkor. Bugun o'quv markazimizda respublikamizning turli hududlaridan, hatto qo'shni davlatlardan ham yoshlar kelib tahsil olmoqda. Bu esa menga g'urur bag'ishlaydi.

IT daromadli soha, biroq hamma ham buni davom ettirib ketolmaydi. Sababi soha juda katta sabr va bilim talab qiladi. Buning uchun siz bir paytda matematika, ingliz tili va fikrlashni yaxshi bilishingiz lozim. Bizning IT jamoamizda SMM mutaxassisi, Web-dasturlash, mobil dasturlash, telegram botlar bilan ishlash shakllangan. Bugungi kunda 500 milliondan ortiq foydalanuvchilariga ega bo'lgan telegram internet ichidagi internet hisoblanib, bundan foydalanishda O'zbekiston Erondan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Bu degani yurtimizda telegram orqali



**Dilnoza ABDUHAMIDOVA**  
tayyorladi.

ritmlar, yangi dasturlar soat sayin o'zgarib bormoqda. Bu sohani mukammal egallab 5–10 million so'm daromad topadigan xodimlari bor. Maoshlar ularning ish tajribasi va mehnatiga qarab belgilanadi.

– Maktabda o'qib yurgan kezlarning bozorida non sotib, arava ham tortardim. Kechasi uyga kelib, kitob o'qirdik. Dadam rahmatli aytar edi: "O'g'lim, sen faqat o'qigin, pulni o'ylama. O'qisang pulning o'zi keladi". Bu nechog'lik haqiqat ekanini mana bugun anglab yetmoqdaman. Bozorda ishlab yurgan kezlarning sinfoshlarim yangi kiyimlar olib, aylanib yurganini ko'rsam, yuragimda bir narsa jiz etardi. Ayniqsa, otam vaftodan keyin bu og'riq yanada kuchaydi... Bir gap borku: "Orolni egallamoqchi bo'lsang, kemalarni yoqib yubor. Chunki qaytish imkoning bo'lmaydi va uni zabt etasan". Bizda ham shunday edi. Faqat oldinga qarab intilish lozim. Arava tortib yurganida ustimdan kulganlar ham bo'lgan. Biroq tinimsiz mehnatim va onamning har doim: "O'zbekistonda mehnat qilgan odam hech qachon kam bo'lmagan", deya aytgan gaplari sabab bugun natijalarga erishdik. Intildik, ishonдик. Orzularimiz maqsadga aylandi.

Umidjon 2021-yilda "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandi. Uning hayotdagi shiori: "Hammasi yaxshilikka, faqat olg'a yurish, maqsadlarga erishish".

“  
OROLNI  
EGALLAMOQCHI BO'LSANG,  
KEMALARNI  
YOQIB YUBOR.”

bajariladigan sohalar ko'p. Shunday ekan, yoshlar bemalol bu borada o'zlarini sinab ko'rishi, chuqur bilim egallashi, kelajagiga poydevor qo'yishi mumkin.

Umidjonning aytishicha, IT sohasidagi odam doimiy izlanishda bo'lishi kerak. Agar u bir soniya to'xtagudek bo'lsa, yangiliklardan bexabar qoladi. Chunki yangi algo-

## AKMALNING G'AYRATI

**Mashhura NASRIDDINOVA,**  
"Yoshlar ovozi" muxbiri



Insonda nimadir qilish uchun xohish bo'lsa, imkon, albatta, topiladi. G'ijduvon tumanidagi Nodirabegim nomli mahallada yashovchi 19 yoshli Akmaljon Sheraliyev xohish ortidan imkon topgan yoshlardan biri.

U hozir Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filialining 2-bosqich talabasi. Bo'sh vaqtlarida turli maishiy texnika va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlaydi. Akmal "Yoshlar daftari"ga sartaroshlik qilish niyati borligini bildirib, murojaat qilgan edi. Sartaroshlik yo'nalishi bo'yicha 10 kun

ta'lim olib, sertifikatga ega bo'ldi. Keyinchalik Yoshlar ishlari agentligi G'ijduvon tuman bo'limi tomonidan sartaroshlik qilish uchun kerak bo'ladigan barcha j-hozlar subsidiya asosida olib berildi.

Hozir sartaroshxonani ta'mirlash va jihozlash ishlari davom etmoqda. Akmal o'z hunariga ukasini ham sherik qilib, sartaroshxonani birgalikda yuritadi, degan fikrlarni aytib o'tadi. Tengdoshimizning niyatlari katta. Ulardan biri mahallasidagi ishsiz yoshlarni shu hunarga qiziqtirib, ularning kelajagi uchun o'z hissasini qo'shishdir.



Erta tong – hamma ish, o'qish, uy yumushlariga shoshiladi! Bunday paytda ayrimlar nonushta qilishga ulgurmasligi, mashina kalitini unutib qoldirishi mumkin. Ammo qariyb 90 foiz insonda shunday refleks, ya'ni doimiy odat shakllanib qolgan, qanday vaziyat bo'lmasin, buni esidan chiqarib qo'ymaydi. Hatto kasallik darajasiga ko'tarilib bo'lgan bu odatni zamonaviy tibbiyot psixologiyasi shunday nomladi – Internetga qaramlik!

## BIZNI "KASAL" QILAYOTGAN ILOVALAR

Uyqudan ko'zini ochgan zahoti telefonini izlaydigan, kuniga bir necha martalab ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarini "kezb" chiqadigan, tanish-notanishlar bilan yozishmalar sabab vaqtini bilib-bilmay sarflab yuboradiganlarni yuqoridagi ko'rinmas va zamonaviy kasallik qurbonlari deb atash mumkin. Darvoqe, internet qaramligi fonida mobil telefonimiz xotirasida mustahkam "o'rnashib olgan" va eng ko'p foydalaniladigan ilovalar: facebook, instagram, twitter va telegram kabi ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolishni ko'rishimiz mumkin.

## NIMASI ZARAR?

Eng avval sog'liqqa (chunki u birinchi o'rinda), keyin cho'ntakka, eng yomoni, atrofdagilar bilan munosabatlaringizga juda jiddiy zarar yetkazadi. Ko'pincha siz buni sezmaydiz, bu esa ijtimoiy tarmoqlar hayotingizning ajralmas bo'lagiga aylanib ulgurganidan darak.

Salomatlilik haqida gap ketar ekan, kun bo'yi u sahifadan bu sahifaga "sakrashingiz", dugonangiz bilan bo'layotgan maroqli chatlashuv, qarindoshlaringiz yig'ilgan telegramdagi onlayn guruhdan kelayotgan xabarlarga javob berish oqibatida ko'zlar qattiq toliqadi. Quyosh nurlaridan, uyda chiroyli nuri va televizor, ish, o'qishda kompyuter ekranidan chiqayotgan to'liqlar yetmaganidek, kun bo'yi telefondan uzilmaydigan ko'zlarimizga qanchalik qiyin ekanini tasavvur qilib ko'ring-a?!

Bundan tashqari, telefondan tarqaladigan nur nafaqat ko'z, balki ichki organlar faoliyati uchun ham sezilarli. Buning natijasida oshqozon va jigar faoliyatiga jiddiy zarar yetadi. Ko'rib turganingizdek, faqat to'g'ri va o'z vaqtida ovqatlanish ham kamlik qilar ekan!

Keyingi o'rinda moddiy tomondan kelishi mumkin bo'lgan zararli

jihatlarni tahlil qilsak. Avvalo, telefon rusumidan qat'iy nazar, internetga ulanish funksiyasi quvvatning tez va ko'proq sarflanishiga sabab bo'ladi. Sizda telefoningizni tez-tez quvvatlashga ehtiyoj paydo bo'ladi. Bunday holatlarning ko'payishi batareykani ishdan chiqaradi.

Internetga ulanish, ijtimoiy tarmoqlarda "faollik" ko'rsatish uchun aloqa operatorlaridan sotib olingan internet to'plamlariga ehtiyoj seziladi. O'zbekistondagi aloqa kompaniyalarida, garchi tezlik jihatdan talabga to'liq javob bermasada, internet paket narxlarida juda qimmat. Masalan, kuniga 1 GB ishlash uchun hisobingizda 10 ming so'mdan ko'p mablag' bo'lishi shart. Yuqoridagi kasallik qurbonlari esa kuniga bir necha GB ishlashadi va bu ular uchun hayratlanarli emas.

Albatta, siz onlayn ishlovchi yoki o'quvchi bo'lsangiz, buning yomon joyi yo'q. Biroq shuncha ki vaqt o'tkazuvchilarga vaqt qimmatli bo'ylik ekanini eslatib o'tmoqchimiz! Zero, ketgan vaqt va megabaytlarni onlayn til o'rganish kurslari uchun yo'naltirish foydali bo'lar edi...

### QANDAY ISHLATISHGA BOG'LIQ!

Internetdan faqat zarar emas, foyda ham olish mumkin.

Demak, bizga internet:

- boshqalar bilan turli axborot, tajriba almashishimizga, uzoq masofadagi do'stlarimiz bilan aloqada bo'lishimizga hamda ularning hayotidagi muhim voqea-hodisalardan bexabar qolib ketmasligimizga yordam beradi;

- agar yangi ish izlayotgan yoki oylik maoshingizdan qoniqmayotgan bo'lsangiz, yangi bo'sh ish o'rinlari haqida ko'proq va tez ma'lumot olishingizni ta'minlaydi;

- ijtimoiy tarmoqlarda ko'pchilik yangi do'stlar orttiradi;

- ijtimoiy tarmoqlar sayohat qilish, transport va joy topish xarajalarini tejashga ko'maklashadi;

- ko'plab yangi-yangi istiodlarning tanilishi, motivatsiya olishi, jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'lishiga yordam beradi;

- kimlar uchundir telegram messenjeri, facebook, instagram tarmoqlari daromad manbayiga aylangan, ehtiyojmandlarga pul to'plash uchun ham qulay!


Hatto tibbiyot xodimlari, dasturchilar, vebmasterlar, huquqshunolar, maorif xodimlari uchun ham alohida va tor doiradagi ijtimoiy tarmoqlar mavjud.

### HUSHYORLIK ZARAR QILMAYDI

Ko'pchilik foydalanuvchilar, ayniqsa, yoshlar auditoriyasi ijtimoiy tarmoqlarga faqat zarur axborot olish, muloqot qilish, o'zini ko'rsatish manbasi sifatida qarashmaydi. Ularning katta qismi profilarni bo'ylab tentirab yurishi, tanish-notanishlarni do'stlar safiga kiritishi, muzokaralarda qatnashib, status va yangiliklarni o'qishi, fotosuratlarini tomosha qilishi, o'yinlar o'ynashi mumkin.

Aziz ata-onalar, eng go'zal tarbiya o'mak ko'rsatish ekanini unutmang. Kimdir chetdan kelib farzandingiz tarbiyasini nazoratga olmaydi, ayniqsa, gap ijtimoiy tarmoqlar haqida ketar ekan, bu g'araz niyatlar uchun juda yaxshi imkoniyat bo'lishi mumkin. Hushyorlikni qo'ldan boy bermang!

Ziyoda RAHIMBOYEVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri



# SAKKIZ KITOB – ZO‘R KITOB

Loyiha muallifi: **Ziyoda RAHIMBOYEVA**

Yoshlarni kitob mutolaasiga targ'ib qilish va kitobxonlarni qo'llab-quvvatlab, rag'batlantirishni o'z oldiga maqsad qilgan "Birgalikda o'qiyamizmi?" loyihasining navbatdagi – 6-soni e'tiboringizga havola etilmoqda.

Bugungi qiziqarli ma'lumot va savollar "Jadidlar" to'plami asosida tuziladi.

Shu kungacha ijtimoiy tarmoqlar orqali murojaat qilganlarga, professor-o'qituvchilarga, talabalarga, o'quvchi-yoshlarga, vazirlik, idora va tashkilotlar xodimlariga bepul yetkazib berilayotgan ushbu kichik va bebaho xazinadan bugungacha 2 ming 500 dan ortig'i tarqatilgan. Sentabr oyidan sotuvga chiqishi kutilayotgan to'plam ko'pchilik muassasa va xonadonlarga kirib bordi. Demak, o'ramizda kitoblarni mutolaa qilishga ulguraganlar yetarlicha topiladi. Ana shunday zukko va ilmga chanqoq kitobxonlarni loyihamizda faol bo'lishga chorlab qolamiz!



1. O'zbek adabiyotida musiqali drama janri va bolalar dramaturgiyasi vujudga kelishida to'plamda nomi keltirilgan qaysi allomaning mehnati katta?

2. Folklorchi olim, musiqashunos, rejissyor, bastakor, publists G'ulom Zafariy 1917-1918-yillarda qaysi jurnaldagi ish olib borganini va qanday g'oyalarni targ'ib qilishda faol bo'lganini toping.

3. Manglayiga XX asr o'zbek she'riyatining porloq yulduzi bo'lishdek yuksak saodat va noraso tuzum qurboni bo'lishdek fojia bitilgan qaysi shoirga Fayzulla Xo'jayev tomonidan "Jamoatchilik xiyla yodidan chiqargunicha Toshkentdan chiqib, Moskvaga borish" maslahati beriladi? Bunga asosiy sabab nima edi?

4.

*Ko'z oching, boqing har yon!*

*Qardoshlar qanday bayram!*

*Shodlikka to'ldi jahon!*

*Fido bu kunlarga jon!*

1917-yil 29-noyabr kuni e'lon qilingan Turkiston muxtoriyati g'imni deyishga arzigulik "Ozod turk bayrami" she'ridan keltirilgan ushbu parcha muallifini toping.

5. "...domlarning el-yurtimiz taraqqiyoti yo'lidagi fidokorona xizmatlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham barchamiz uchun haqiqiy ibrat bo'lib kelmoqda". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ushbu fikrlarida qaysi jadidchi alloma haqida gap bormoqda, nuqtalar o'rnini to'ldiring.

6. Millat qahramoni Is'hoqxon To'ra Ibrat tomonidan 1914-yil To'raqo'rg'onda ochilgan "Uchitel" nomli maktab nima sababdan yopildi?

7. Abdurauf Abdurahim o'g'lining taxallusi qanday ma'noni anglatadi?

8. Fitrat qalamiga mansub falsafiy-axloqiy risolalarni sanang.

9. "Barcha aziz vatandoshlar, muhtaram dindosh birodarlar! Sizlarga xitob qilib, kamoli odob bilan aytamanki, birodarlar, juda ko'p kunlarni va xiyla fursatni g'aflatda va tanballikda o'tkazaymiz. Bas, endi! Hozir g'aflat vaqti emas. Bu chaqiriq kimga tegishli?"

10. 1924-yildayoq "Felyetonlar qiroli" nomini olgan allomaning taxalluslarini sanang.


11. Qodiriy haqidagi "Abdulla Qodiriyning so'nggi sabog'i" she'ri muallifi kim?

12. Abdulla Avloniyning "Qutuldik" she'ri aynan qaysi tarixiy voqeaga asoslangan edi?

13. Hozirgi milliy dunyoviy o'rta maxsus ta'limga asos solib, ikki yillik "Rushdiya" jadid maktabini ochgan jadid kim edi?

14. Jadidlar otasi – Mahmudxo'ja Behbudiy qaysi dramasi orqali jaholat, fikr, dunyoqarash bilan birga turkistonlik tomoshabinlar ko'nglida afsus-nadomat tuyg'ularini uyg'otishni maqsad qilgan edi?

15. Behbudiy qalamiga mansub qaysi maqolada uning til borasidagi qarashlari, fikr-mulohaza va takliflari aks etgan?




**8 kitobdan iborat kichik, ammo o'zida juda katta va foydali bilimlarni jamlagan "Jadidlar" to'plami asosida tuzilgan savollarmizga joriy yilning 20-avgust sanasiga qadar quyidagi pochta manziliga javob yo'llashingiz mumkin: G'olib ishtirokchini tahririyatning maxsus sovg'asi kutmoqda. Mutolaaga shoshiling, aziz yoshlar!**

Minbar

## MUALLIMNING CHAQIRIG'I

Zavqibek MAHMUDOV,  
Yuqorichirchiq tumanidagi  
34-maktabning tarix o'qituvchisi



**O**rtiqcha qog'ozbozlik va "tekshir-tekshir"lar ta'limni rivojlantirmaydi, balki uni o'ldiradi. Mehnat ta'tilidagi o'qituvchi va maktab ma'muriyatini imkon qadar bezovta qilmaylik. O'zgina bo'lsa ham dam olsin, chunki sentabrdan yana 10 oy davomida farzandingizga siz bera olmayotgan e'tibor, ta'lim va tarbi-

yani mas'uliyat va yangi kuch bilan yetkazishi kerak. Ta'lim muassasalarida rahbarlarning nafsini "to'q" bo'lsa, bu dargoh qisqa muddatda yuqori natija ko'rsata oladi.

### OTA-ONALARGA!

Mansabdor shaxsmisiz yoki oddiy inson – bolangizning maktabiga ko'proq, tez-tez boring. O'qituvchilardan "Maktabda qana-

qa muammo yoki kamchiliklar bor, farzandimning ta'lim va tarbiyasi qanday?" deb so'rab turing. Bu juda ko'p narsani, ayniqsa, farzandlaringiz kelajagiga bee'tibor emasligingizni ko'rsatadi.

### MAKTAB RAHBARIGA!

O'qituvchilarni majburiy mehnatga yo'naltirmang, ota-onalar bilan ko'proq ishlang, ota-onalar bolaning oldida ustoziga "farzandimni sizga topshirdim, eti sizga, suyagi bizga" deb aytsin. Kichkina bo'lsa-da, muvaffaqiyatga erishgan bilimli o'quvchini, albatta, rag'batlantiring. Bundan ruhlangan o'quvchi hade may yurtda nafaqat sizning, balki yurtimizning sha'nini himoya qiladi!

Kuchli bilim va salohiyatga ega yosh kadrlarni qanday bo'lmasin

ta'limga yo'naltiring. Boshqa sohada 20-25 yil ishlab maktabga kelgan odamning asosiy qayg'usi eson-omon nafaqaga yetib olish bo'ladi. Salohiyatli yosh kadrlar esa o'zini tez ko'rsatadi.

### O'QITUVCHIGA!

Nafaqat o'quvchi, balki ota-onalarni ham tarix bilan "qurollantiring". O'quvchilari va fani doirasida o'zi ham yutuqlarga erishgan o'qituvchilarga alohida e'tibor qarating. Nafaqat respublika, balki tuman va viloyat bosqichlarida ham natijaga erishgan bilimli o'quvchilar va ularning ota-onalarini rag'batlantirish, turli ijtimoiy tarmoqlar va gazetalarda yoritishdan hech qachon to'xtamang, bu harakatlar mudrab yotgan boshqa ota-onalarni, ularning farzandlarini uyg'otadi.

# MATONATLI FUTBOLCHILAR

1988-YILI MAMLAKATIMIZDA NOGIRON-AMPUTANTLAR FUTBOLIGA ASOS SOLINGAN. NOGIRON-AMPUTANTLAR TERMA JAMOAMIZ A'ZOLARI SHU KUNGACHA BESH KARRA JAHON CHEMPIONATI G'OLIBI HISOBLANADI.



Futbol bo'yicha O'zbekiston nogiron-amputantlar terma jamoasining jahon chempionatlaridagi ishtiroki:

- 1990-yil (AQSh)** – oltin medal;
- 1991-yil (O'zbekiston)** – oltin medal;
- 2007-yil (Turkiya)** – oltin medal;
- 2010-yil (Argentina)** – oltin medal;
- 2012-yil (Rossiya)** – oltin medal.

Bundan tashqari, jamoa 1988 va 2002-yilgi mundialda kumush va bronza medaliga sazovor bo'lgan.



Shuningdek, ketma-ket uch yil – 1989-1991-yillar "Rahm-shafqat", 1991-yil "Trud" gazetasi sovrini, 1993-yil "Spartak Kubogi", 1993-yil "Baynalmilal jangchilar" sovrini, 1993-yil "Nogironlar futbol assotsiatsiyasi", Rossiya ochiq chempionati – 1996, Gruzia nogironlar federatsiyasi sovrini – 1998, Xalqaro nogironlar festivali – 1999, MDH Kubogi – 2007 singari xalqaro turnirlarda bosh sovrinni, qolaversa, 1999-yilgi Yevropa ochiq chempionatida bronza medalini qo'lga kiritgan.

E'tiborli jihati shundaki, bu insonlar o'zlarini imkoniyati cheklangan deb hisoblamaydi, har bir imkoniyatdan unumli foydalanishga harakat qiladi.

Tan olish kerak, so'nggi yillarda mazkur sohada ham pasayish kuzatildi. Hozirgi kunda nogiron-amputantlar futbol jamoasining avvalgi shon-shuhratini, mavqeyini qayta tiklash, respublikamiz viloyatlarida imkoniyati cheklangan, ammo futbolga qiziqishi bo'lgan insonlarni izlab topish, mamlakat terma jamoasiga munosib o'rinbosarlarni tayyorlashni maqsad qilgan "Matonat futbol" nogiron-amputantlar futbolini rivojlantirish markazi – 2020-yil 17-yanvar kuni tashkil etilgan. Ayni paytda markaz o'z ish faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yganiga guvoh bo'lish mumkin. O'zbekiston nogiron-amputantlar terma jamoasi bu yilgi mundialning final

bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

O'zbekiston "E" guruhidan o'rin olgan, Polsha, Ispaniya hamda Tanzaniya terma jamoalariga qarshi bahs olib boradi. Amputant futbolchilarimiz jahon chempionati oldidan tayyorgarlikni Jizzax viloyati Zomin tumanida o'tkazadi. Ham yurtlarimizga navbatdagi jahon chempionatida muvaffaqiyat tilab qolamiz.

Eslatib o'tamiz, nogiron-amputantlar o'rtasidagi Jahon chempionati 30-sentabrdan 9-oktabrgacha Turkiyaning Istanbul shahrida bo'lib o'tadi.

**Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,**  
"Yoshlar ovozi" muxbiri



## OROMGOHDA 55- O'RINGA KO'TARILDIK

Yoshlar ishlari agentligi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamkorligida jahon internet tarmog'ida o'zbek tilidagi sifatli ma'lumotlarni ko'paytirish va iqtidorli talabalarni munosib rag'batlantirish maqsadida "Wiki-Stipendiya" marafoni yo'lga qo'yilgan. Marafon doirasida "Wikioromgoh" loyihasi tashkil etildi.

Bir haftalik oromgohda Vikipediya administratorlaridan mahorat darslari tingladik, taniqli ijodkor, blogger, ishbilarmonlar bilan uchrashuvlar, boshqa qiziqarli mashg'ulotlarda qatnashdik.

"Wikioromgoh" loyihasida ishtirok etish uchun 19-iyuldan 26-iyulgacha Vikipediaga 10 ta sifatli maqola joylashtirish kerak edi. Men ham o'z maqolalarimni joylab, ishtirok-



chilar yo'xatidan joy oldim. O'tgan bir hafta taassurotlarga boy bo'ldi. Biz tarmoqqa sifatli maqola joylash sir-asrorini o'rgandik. Bu bilan Vikipediadagi o'zbekcha maqolalar sonini oshirishga o'z hissamizni qo'shdik. Bir haftada ishtirokchilar 8 726 ta maqola yaratdi, bu reytingda ikki pog'ona yuqoriga siljishimizga yordam berdi (57- o'ringdan 55-o'ringa).

### E'LON

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashiga tegishli bo'lgan ko'pqavattli uylarga Toshkent shahar uy-joylarga davlat orderlari va ma'lumotlar berish markazi tomonidan 17.02.2020-yilda berilgan № 22-05/1065 hamda № 22-05/1073 Mulkiy huquqni tasdiqlovchi davlat orderlari yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI.

Nargiza NAMOZOVA,  
"Wikioromgoh" loyihasi ishtirokchisi

## YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:  
**Hamza ABDULLAYEV**

**Muassis:**  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:  
**Muhammadshukur MUHAMMADJONOV**

Musahhihlar:  
**Rashid XO'JAMOV,**  
**Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 17-dekabrda № 0242 raqamini bilan qayta ruyxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va shifalanadi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 238-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etiladi. Hajmi – 2 bosma taboq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma ☎-855, Adadi – 10527. Boshiga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6